

BUYRUQ

20 26 yil “ 14 ” yanvar

№ 09-DB

Toshkent shahri

“Davlat belgisi” MChJ xarid komissiyasi tarkibini tuzish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-684-sonli Qonuni va boshqa tegishli qonunchilik hujjatlari talablarini bajarilishini ta’minlash maqsadida,

BUYURAMAN:

1. “Davlat belgisi” davlat unitar korxonasining tashkiliy huquqiy shakli “Davlat belgisi” mas’uliyati cheklangan jamiyatiga o‘zgartirilganligi hamda ayrim xodimlari bilan mehnat shartnomasi bekor qilinganligini inobatga olib, jamiyatning ish faoliyatini yuritish va tashkil etish uchun zarur bo‘lgan tovar moddiy boyliklarni hamda ish va xizmatlar xaridlarini amalga oshirish bilan bog‘liq masalalarni ko‘rib chiqish va qaror qabul qilish bo‘yicha xarid komissiyasining quyidagi tarkibi tuzilsin:

Komissiya raisi:

I.K.Anarboyev

- Bosh direktor o‘rinbosari.

Komissiya raisi o‘rinbosari:

M.M.Abidov

- Bosh direktor o‘rinbosari – bosh injener v.v.b.

Komissiya a‘zolari:

A.A.Teterina

- Ishlab chiqarish boshqarmasi boshlig‘i;

A.Y.Askarov

- Buxgalteriya bo‘limi boshlig‘i-bosh buxgalter;

J.X.Raxmatov

- Strategik rejalashtirish va rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i;

I.I.Karimov

- Sifat va standartlashtirish bo‘limi boshlig‘i;

S.A.Asilxo‘jayev

- Mexanika bo‘limi boshlig‘i;

Lavozim bo‘yicha

- Texnologiya bo‘limi boshlig‘i;

A.X.Muratov

- Yuridik xizmati bosh yuriskonsulti.

Komissiya kotibi:

A.A.Urakov

- Ta'minot bo'yicha yetakchi mutaxassisi

2. Xarid komissiyasi zimmasiga xarid qilish tartib-tamoyilini O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-sonli Qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-maydagi 276-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda PF-259-son Farmoni va boshqa tegishli qonunchilik hujjatlari talablari asosida tashkil etish va o'tkazish, jamiyatning faoliyat ko'rsatishi va ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan tovar-moddiy boyliklar, ish va xizmatlar xaridi bo'yicha rasmiylashtirilgan buyurtmalarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish vazifalari yuklatilsin.

3. Jamiyatning xarid komissiyasi faoliyatini uning ovoz berish huquqiga ega bo'lmagan mas'ul kotibi tashkil etadi. Kotib tomonidan:

- Tanlov o'tkazilganda biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning tanlash ishtirokchisining taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini;

- Tender o'tkazilganda biriktirilgan hujjatlardagi ma'lumotlarning ishtirokchining tender taklifida ko'rsatilgan ma'lumotlarga muvofiqligini tekshirish amalga oshiriladi.

4. Buyurtmada ko'rsatilgan tovar moddiy boyliklarni hamda ish va xizmatlarni xarid qilish "Davlat xaridlari to'g'risida"gi qonun hamda boshqa tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilangan talablar asosida elektron tizimda amalga oshirilsin. Bunda:

- Jamiyat tomonidan Davlat xaridlarini amalga oshirishda Davlat xaridlari elektron tizimidan foydalangan holda mahalliy shartnomalarni Strategik rejalashtirish va rivojlantirish boshqarmasi xaridlarni tashkil etish bo'yicha yetakchi mutaxassisi zimmasiga;

- "Tashqi savdo axborot tizimi"ga jamiyat tomonidan tuzilgan import shartnomalari va u bilan bog'liq bo'lgan ma'lumotlarni kiritib borish vazifasi Marketing va mahsulotlarni eksport qilish boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha bosh mutaxassisi zimmasiga yuklatilsin.

5. Eng yaxshi takliflarni tanlash, tender va to'g'ridan-to'g'ri xarid qilinadigan tovar-moddiy boyliklar, ish va xizmatlar bo'yicha shartnomalarni tuzish vazifasi yuridik xizmat va buyurtma ijrochilariga yuklatilsin.

6. Tuzilgan shartnomalar bo'yicha mahsulotlarni olib kelish va omborlarga belgilangan tartibda topshirish vazifalari Marketing va mahsulotlarni eksport qilish boshqarmasi yuklarni bojxona rasmiylashtiruvchi bo'yicha bosh mutaxassisi (import) hamda Ma'muriy xo'jalik bo'limi ekspeditori (mahalliy) zimmalariga yuklatilsin.

7. Xarid komissiyasi muhokamasi natijalariga ko'ra mahalliy xaridlar bo'yicha bayonnoma rasmiylashtirish va imzolangan bayonnomaning belgilangan tartibda Strategik rejalashtirish va rivojlantirish boshqarmasi xaridlarni tashkil etish bo'yicha

yetakchi mutaxassisiga topshirish vazifasi xarid komissiyasi kotibi va buyurtma ijrochilariga yuklatilsin.


8. Komissiya taklifiga binoan ayrim buyurtmalarni ko'rib chiqish va tavsiya berish uchun jamiyatning tegishli mas'ul mutaxassislari jalb qilinishi belgilansin.

9. Komissiya a'zolari yoki mas'ul mutaxassislardan biri ishda bo'lmaganda, boshqa lavozimga o'tkazilganda yoki mehnat shartnomasi bekor qilinganda, uning lavozimiga tayinlangan yoki majburiyatlari yuklangan xodim komissiya a'zosi va mas'ul mutaxassis hisoblanadi.

10. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan "Davlat belgisi" davlat unitar korxonasining 2025-yil 30-apreldagi 51-DB-sonli buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.


11. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish bosh direktor o'rinbosarlari I.K.Anarboyev, F.I.Bozorov, M.M.Abidov zimmalariga yuklatilsin.

Bosh direktor



A.Xamidov

Bosh direktor o'rinbosari


I.K. Anarboyev


Bosh direktor o'rinbosari


F.I. Bozorov

Bosh direktor o'rinbosari
bosh injener v.v.b


- M.M. Abidov

Buxgalteriya bo'limi boshlig'i
- bosh buxgalter


A.Y. Askarov

Marketing va maxsulotlarni eksport
qilish boshqarmasi boshlig'i


D.G. Nasretdinova

Strategik rejalashtirish va
rivojlantirish boshqarmasi boshlig'i


J.X. Raxmatov

Bosh yuriskonsult


A.X. Muratov